

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**«RO'YXATGA OLINDI»**

№ BM-343-3400-3.08  
«09» \_\_ 06 \_\_ 2003 y.

**«TASDIQLANDI»**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi  
S.Tulyaiov  
«1» iyul 2003 y.**

**“MIKROIQTISODIYO'T”**

**fanidan**

**DASTUR**

**340000 - “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi barcha bakalavriat  
yo'nalishlari uchun**

**Tuzuvchi:** prof. I. Igamberdiev.

**Taqrizchi:** prof. M.L. Tursunxodjaev,  
dots. S.S. Nasreddinova

Dasturda xilma - xil iste'molchilar xususiyatlari, xatti - xarakati, ishlab chiqaruvchilar, ishchilar, tadbirkorlar, er egalari, sarmoya qo'yuvchilar va boshqalarning talablari, ularning xarajat va daromadlari, firma va korxonalarda ishlab chiqarish hajmining o'sishi, mahsulot bahosi, uning o'zgarishining talab vataklifga ta'siri, soliq yukining taqsimlanishi, raqobat bozori, bozorlarning bog'liqligi va ularni o'zaro ta'siri kabi masalalarni o'rganib, resurslarning cheklanganligi sharoitida iqtisodning hal qiluvchi, dastlabki ishlab chiqarish bo'g'inlarida bozorni xilma - xil tovarlar bilan to'ldirib, maksimal foydaga erishish yo'llarini bilish talablari hisobga olinadi.

В программу включены требования по знанию таких вопросов как особенностей разнообразных потребителей и их поведения, потребностей рабочих, предпринимателей, инвесторов, фермеров, рост объема продукции на фирмах и предприятиях, цену продукции, влияние его изменения на спрос и предложение, распределения налогового бремени, конкурентные рынки, взаимосвяз рынков и их взаимодействие в условиях ограниченности ресурсов, пополнения рынка разнообразными товарами и при этом пути достижение максимальной прибыли на первичном решающем звене экономики.

The distributions of tax burden, competitive markets, interrelation of the markets and their interaction in conditions of limitation of resources, updating of the market are included necessity of study of questions of features of the various consumers and their behaviour, requirements working, businessmen, investors, growth of volume of production in firms and enterprises, price of production, influence of its change on a supply and demand, in the program by the various goods and at this way achievement of the maximal profit on a primary decisive part of economy.

## 1. SO'Z BOSHI

### O'quv fanining maqsadi va vazifalari, boshqax fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

- “Mikroiqtisodiyot” fanini o'qitishdan maqsad – bozor ishtirokchilari bo'lmish - iste'molchilarning xususiyatlarini, hatti - harakatini, ishlab chiqaruvchilar, ular bilan iste'molchilarning bog'liqligini; ishchilar, tadbirkorlar, er egalari, sarmoya qo'yuvchilar (investorlar)ning talablarini, ularning harajat va daromadlarini, firma va korxonalarda ishchilar soni, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, mahsulot bahosi, uning o'zgarishini talab va taklifga ta'sirini, raqobat bozori va boshqa jarayonlarning o'zgarishi; davlatning roli, hukumatning iqtisodiy siyosati kabi masalalarni chuqur va har tomonlama tahlil qilib mukammal bilimlar berishdir. Ushbu fan sohasi nihoyatda rang - barang va ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy fikr - mulohaza qilishga, oqilona qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.
  - Fanning asosiy vazifasi – iqtisodiyotning hal qiluvchi, dastlabki bo'g'inidagi xo'jaliklarning resurslar cheklangan sharoitidagi hatti - harakatlarini o'rganish, resurslarni oqilona taqsimlab, ulardan samarali foydalanish asosida jamiyat a'zolarining talab va ehtiyojlarini nisbatan to'laroq va sifatliroq qondirib borish, shu bilan bir vaqtda maksimal foydaga erishish yo'llarini izlab topishga o'rgatishdir.

Mikroiqtisodiyot ilmini chuqur egallash va ushbu fan sohasi o'rgatadigan iqtisodiy muammolarni firma va korxonalar, uy xo'jaliklarida hal etish yo'llarini topish uchun talabalardan quyidagilarni bilish talab etiladi:

- Hozirgi davrdagi bozor iqtisodiyoti mexanizmini;
- Korxonalar, firmalar va boshqa tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiyotining xususiyatlarini;
- Bozor qonunlarining mohiyati, talablari va uning xarakati ta'sirini;
- Ishlab chiqarishni korxonada tashkil etish asoslarini;
- Kichik va o'rta korxonalar faoliyatining huquqiy va iqtisodiy asoslarini; ularga tegishli qonun va me'yoriy xujjatlarning mohiyatini;
- Xukumatimizning hozirgi davrdagi mikroiqtisodiy siyosatini va x.k.

“Mikroiqtisodiyot” fani o’quv rejasidagi boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir. U dastavval firma va korxonalar iqtisodiyoti; tadbirkorlik fanlari bilan uzviy bog’liqdir. Mikroiqtisod ilmi barcha iqtisodchi mutaxassislari uchun zarur fan hisoblanadi va u iqtisodiyot nazariyasi, moliya, soliq va soliqqa tortish, bank ishi, buxgalteriya hisobi va audit, marketing, menejment, bozor iqtisodiyoti kabi bir qator fan sohalari bilan ham uzviy bog’liq bo’lib, ular orasida muhim o’rin tutadi. Mazkur fanni o’zlashtirishdan avval “Iqtisodiyot nazariyasi” “Korxonalar iqtisodiyoti”, “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi” kabi fan sohaslarini ham chuqur bilish taqozo etiladi.

### **Talabalar bilimi va mahoratiga talablar**

Mikroiqtisodiyot ilmini o’rganishda talabalar ushbu fanga bog’liq bo’lgan fan sohaslaridan ham bilimga ega bo’lishi zarur. Birinchi galda talabalar bozor iqtisodiyoti asoslarini, bozor qonunlari va ularning iqtisodiyotga ta’sirini, O’zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o’tishining o’ziga xos tomonlari, shart - sharoitlarini, respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishning zaruriyati, ahamiyati va huquqiy asoslarini, jamiyat oldida turgan iqtisodiy muammolar, ularni hal etish yo’llarini, bozor iqtisodiyotining kamchiliklari, xukumatimizning mikroiqtisodiy sohadagi siyosatini chuqur bilishi, korxonalar iqtisodiyoti va uning ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish, resurslarni oqilona taqsimlash va undan unumli foydalanish va pirovard natijada bozorni tovarlar bilan to’ldirib, jamiyat a’zolari talabini maksimal darajada qondirish yo’llari to’g’risida etarli bilimga ega bo’lishlari zarur. Ushbu dasturda o’rganish uchun ajratilgan mavzular bo’yicha talabalar bilimi va mahoratiga qo’yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- - Mikroiqtisodiyot fani dasturiga kirgan har bir mavzu bo’yicha mustaqil bilimga ega bo’lishlari, amaliy va seminar mashg’ulotlarida qo’yilgan savollarga javob berishi, masalalar ishlashi, test topshiriqlari, nazorot ishlarini bajarishi va shu asosda reyting ballarini to’plab borishlari;
- - Respublika qonunlari va hukumat qarorlari haqida tushunchaga ega bo’lishlari, ularning asosiy tomonlarini bilishlari;
- - Mustaqil ta’lim uchun ajratilgan mavzular bo’yicha tayyorlanib, zarur ballarni to’plab borishlari;
- - Yakuniy baholashda kafedra tavsiya etgan “qizma ish”larni qoniqarli darajada yozib topshirishlari lozim.

### **Amaliy va seminar mashg'ulotlarda bajariladigan ishlarga talablar**

Namunaviy dasturdagi mavzular bo'yicha seminar va amaliy mashg'ulot darslari uchun talabalarga ko'rsatmalar chop etib tarqatiladi, savolnomalar, adabiyotlar ro'yxati, testlar tavsiya etiladi. Berilgan axborotlar asosida talabalar fanni o'zlashtirishga kirishadilar. Talabalar amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan 18 soatning maksimal 70% (ya'ni 12,6 ball) hisobdan topshiriqlarni bajarishlari lozim bo'ladi.

### **Auditoriya mashg'ulotlari turlarining soatlar hajmi**

Mikroiqtisodiyot fani kunduzgi bo'limlarda 4 semestrda (2 - kursning ikkinchi yarim yilligida) o'qitiladi. O'quv rejasi bo'yicha fan uchun jami ajratilgan soatlar 81 soat bo'lib, shundan 54 soati auditoriya soatlaridir. Ma'ruza soatlari 36, seminar va amaliy mashg'ulotlar uchun 18 soat belgilangan.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Talabalar fanni o'zlashtirish jarayonida ular egallagan bilimlari o'quv dargohi ixtiyorida mavjud bo'lgan barcha nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi yangi nizom (1999y. 8 iyun, buyruq <sup>1</sup> 194 va 7 fevral <sup>1</sup> 27)ga asosan ma'ruza darsi, seminar va amaliy mashg'ulotlarda baholanib boriladi. JB, OB bir semestrda 2 marta, YaB – bir marta amalga oshiriladi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan 54 soatning 70% miqdorida joriy nazorat uchun 12,6 soat va oraliq nazorat uchun 25,2 soat, yakuniy nazorat uchun esa 30%, ya'ni 16,2 soat ajratilgan. Yakuniy nazoratda talabalar "qzma ish" yozadilar.

### **Kompyuter, axborot va boshqa pedagogik texnologiyalarni qo'llash**

Kompyuterda Jahon Banki Instituti tomonidan taqdim etilgan "Mikroiqtisodiyot" fani mavzulari elektron obolochkaga joylashtirilgan. Masofaviy dars jarayonida, bu axborotlardan bevosita talabalar mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari talabalar Toshkent Moliya Institutidagi Internet shahobchasiga kiritilgan elektron pochtaning quyidagi qidiruv sistemalaridan foydalanib o'z bilimlarini oshirishlari mumkin.

1. [www.Yandex.ru](http://www.Yandex.ru)
2. [www.google.ru](http://www.google.ru)
3. [www.ortv.ru](http://www.ortv.ru)

Ma'ruza matnlarining elektron versiyasini Toshkent Moliya Instituti kutubxonasidan olib talabalar kompyuter yordamida foydalanishlari mumkin.

- - Statistik ma'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasi statistik ma'lumotlari asosida Keys materiallari tayyorlangan va elektron obolochkaga kiritilgan. Bu axborotlar respublikamiz iqtisodiy holati to'g'risida bo'lganligi uchun talabalar yanada ham qiziqish bilan shu fanni masofaviy darsda o'rganmoqda.

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Ushbu o'quv dasturi asosida ishchi dastur tuziladi. Ishchi dasturda fanga ajratilgan soatlar, ma'ruza va amaliy darslar bo'yicha soatlar, mustaqil ta'lim soatlari va shunga yarasha topshiriqlar mavzulari ko'rsatiladi, adabiyotlar ro'yxatlari keltiriladi.

## **2. FAN DASTURI I QISM.**

### **Mikroiqtisodiyotga kirish va bozorlar**

“Mikroiqtisodiyot” fanining predmeti va o'rganish uslubi

Mikroiqtisodiyot ilmining muhim tomonlari. Mikroiqtisodiyot fanining alohida iqtisodiy sub'ektlar faoliyati, aniq turdagi tovarlar bahosi, firmalar va iste'molchilar bilan bog'liqligi; firma va korxonalaridagi iqtisodiy ko'rsatkichlar, mehnat unumdorligi, ishsizlik, foyda va daromad, ish kuchi va xom ashyo materiallaridan foydalanish ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi. Xo'jalik vazifalarini xal etishda mikroiqtisodiyotning amaliy ahamiyati.

Mikroiqtisodiyot fanining boshqa fan sohalarida tutgan o'rni va ahamiyati.

Mikroiqtisodiyot ilmini o'rganish usullari, ularning mohiyati va qo'llanilishi.

### **Ijtimoiy ne'matlar va ulardan foydalanish**

*Ijtimoiy nematlar va ularning bo'linishi, mohiyati. Xususiy va ijtimoiy ne'matlar.\**

Ne'matlarning iqtisodiy *qimmati* va ne'matlarning alternativ qiymati. Ijtimoiy ne'matlarga bo'lgan talab.

Kishilar tomonidan ne'matlarni foydalanish uchun tanlab olinishi.

Individlar, institutlarning ne'matlardan foydalanishdagi ratsional harakati. Harakatning maksimal foydaliligi va uni amalga oshirish printsiplari.

Ne'matlarning etishmasligi, kamyobligi bilan unga bo'lgan talabning nomutanosibliigi, ya'ni talabning kamyob bo'lgan nematlardan ko'pligi. Mulk

ob'ekti bo'lgan resurslar tavsifi. Iqtisodiy jarayonlar tahlili va iqtisodiy siyosatni belgilash.

*Mikroiqtisodiyot ilmining xo'jalik vazifalarini xal etishda ishlatilishi. Iqtisodiy qarorlar qabul qilish printsiplari.*

### **Talab, taklif elastikligi va soliq yukining taqsimlanishi**

Talab elastikligi, uning turlari, va aniqlash usuli. O'zgaruchan (ijobiy) va noo'zgaruvchan talab: mohiyati va iqtisodiy oqibatlari. Talab va taklif elastikligiga ta'sir etuvchi omillar. Talab funksiyasi. Talabning baholi funksiyasi.

Vaqt omili va taklif elastikligi. Bozor davrlari, ularning mohiyati, tovarlar kamyoblighi va ortiqchaligini keltirib chiqaruvchi shart - sharoitlar. *Davlatning baho ustidan nazorati. Talab o'zgaruvchanligi va soliqlar. Soliq yukining taqsimlanishi: Soliq tizimini amalga oshirish printsiplari, bozor muvozanati va egri soliqlar. Soliqlar va taklif elastikligi. Soliqlar va talab elastikligi.*

## **II QISM.**

### **Ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va raqobatli bozorlar**

Iste'molchi hatti - harakatlari nazariyasi asoslari

Iste'molchilarning turlari, xususiyatlari. Iste'molchi tomonidan tovar afzalligini baholanishi. Iste'molchining tovarni baholashiga ta'sir etuvchi omillar. Befarqlik egri chizig'i. O'rindosh tovarlar tanlovining pirovard me'yori. Iste'molchi talabining xarajatiga ko'ra cheklanishi. Byudjet chizig'i va uni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Iste'molchining tovar tanlovi. Foydalilik kontseptsiyasi. Foydalilikni maksimallashtirish (pirovard foydaliylik).

### **Shaxsiy va bozor talabi**

Iste'molchining tovar afzalligini ajratishi va talabni o'zgarishi. Tovar foydaliligini maksimallashtirish va talabni o'zgarishi. Iste'molni tovar bahosiga bog'liqligi. Daromadni iste'mol hajmiga ta'siri. Baho bir xil darajada qolganda daromad ko'payishining foydaliyligi. Bozor talabini shakllanishi. Iste'moldagi ortiqchalik.

## **III QISM**

### **. Ishlab chiqarish va firmalarning hatti - harakati**

**Ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarish funksiyalari**

Ishlab chiqarish omillari (funktsiyalari)ning mahsulot hajmini ko'payishiga ta'siri ( $Q=F(J,K)$ ).

Izokvantalar. Izokosta.

Qisqa va uzoq bozor davrlaridagi ishlab chiqarish. Ishlab chiqarish hajmining kamayishi va ko'payishining iqtisodiy oqibatlarini.

### **Ishlab chiqarish omillari (resurslar) bozori**

Ishlab chiqarishning ijtimoiy hayotdagi o'rni va iqtisodiy ahamiyati. Ishlab chiqarish omillari (*resurslar*) to'g'risida tushuncha va resurslar bozori. *Iqtisodiy resurs guruhlari*. Ishlab chiqarish omillari bozorida firmalarning holati (muvozanati). *Resurslarni tanlash va resurslar unumdorligi*. Raqobat bozorida resurslarga bo'lgan talab va taklif.

### **Kapital (investitsion resurslar) bozori**

*Kapital va investitsion resurslar haqida tushuncha*. Kapitaldan daromad (foiz) va uning iqtisodiy tabiati. Investitsiya qiymatini hisoblash. Diskont qiymati. Bo'lg'usi daromadni aniqlash. Zarar miqdorini aniqlash. Obligatsiyalarni diskontlangan qiymati va uni hisoblash. Obligatsiyadan tegadigan chinakam daromad.

## **IV QISM. Ishlab chiqarishning bozor tuzilishi va bozor omillari**

### **Xarajatlar va bozorning ularga ta'siri**

Xarajatlar to'g'risida tushuncha. Xarajat turlari. *Pirovard* xarajatlar. Resurslarning taqsimlanishi va ishlab chiqarish imkoniyatlari. Ishlab chiqarish ko'lamini oshirish va xarajatlarning o'zgarishi. Uzoq va qisqa bozor davrlarida firma xarajatining o'zgarishi.

Bozor hokimligi

Monopoliya va monopol hokimlik. *Monopol firmalar hatti - harakatining tahlili*. Monopol hokimlikni kelib chiqish shart - sharoitlari. Monopol hokimlikdagi zararlar. Ijtimoiy xarajatlar samaradorligining pasayishi. *O'zbekistonda yakka hokimlikka qarshi qabul qilingan hukumat qonun va farmonlari, tadbir - choralari*.

*Bahoning davlat tomonidan boshqarilishi va monopol hokimlikdagi sof zararining yo'qolishi*.

Monopol raqobat va oligopoliya

*Bozor tuzilishi, uning shakllari* va ahamiyati. Monopoliya sharoitida raqobat bozori. O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni



rivojlantirish Davlat qo'mitasining monopol faoliyatni cheklash va raqobatni rivojlantirishga qaratilgan choralari.

Monopol raqobat va korxonalar foydasi. Mahsulotni diferentsiallashtirish. Monopol raqobatning ijtimoiy zaruriyati. Oligopoliya va korxonalarning oligopoliya sharoitidagi hatti - harakati. O'zbekiston bozorlarida sog'lom raqobat muhitini barpo etishdagi muammolar.

Bozorlar bog'liqligi va ularning o'zaro ta'siri

Soliq, baho va mahsulotni sotish hajmi o'rtasidagi bog'liqliklar tahlili. Foydani maksimallashtirish. Qisqa davrda foydani maksimallashtirish. Uzoq davrda foydani oshirish. Tovar ayirboshlash jarayonidagi samaradorlik.

### **3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZUSINING MAZMUNI**

#### **Fanning predmeti va o'rganish uslubi**

«Mikroiqtisodiyot» fanining mohiyati, tutgan o'rni, ahamiyati va vazifalari. Fanni o'rganish usullari, ularning mohiyati. Xo'jalik vazifalarini hal etishda mikroiqtisodiy bilimlarning qo'llanilishi.

Ijtimoiy ne'matlar va iqtisodiy o'sish

Ijtimoiy ne'matlar, ularning bo'linishi va mohiyati. Ne'matlarning iqtisodiy qiymati va alternativ qiymati. Ne'matlardan tanlab foydalanishdagi ratsional harakat. Iqtisodiy o'sish nima Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari.

#### **Talab va taklif elastikligi va soliq yukining taqsimlanishi**

Talab va ehtiyoj to'g'risida tushuncha. Talab; talab nima; talab hajmi; talab funksiyasi; talab qonuni; talab chizig'i; talab hajmining o'zgarishi.

Taklif; taklif hajmi; taklif funksiyasi; taklif qonuni; taklif egri chizig'i; taklifning o'zgarishi. Taklif, talab elastikligi va unga ta'sir etuvchi omillar. Soliq yukining taqsimlanishi.

#### **Iste'molchi hatti - harakatlari nazariyasi, asoslari**

Istemolchi hatti - harakatlarining xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar. Iste'molchining tovar afzalligini ajratishi: befarqlik egri chizig'i; tovar tanlovinin pirovard me'yori. Iste'molchi talabining daromadiga ko'ra cheklanishi (yoki daromadning talabga ta'siri). Iste'molchining tovar tanlovi (ehtiyojini maksimal qondirishi). Tovar faydaliligini oshirish va iste'molchilarning qoniqishi. Tovarlarining pirovard foydaliligi.

#### **Shaxsiy va bozor talabi**

Shaxsiy va bozor talabi to'g'risida tushuncha, ularning farqi, xususiyatlari. Alohida iste'molchilarning tovarlarga bo'lgan talabini qondirishiga bahoning ta'siri. Tovarlar bahosi o'zgarishi natijasida iste'molchi oladigan samara. Daromadning iste'mol hajmiga ta'siri. Bozor talabining shakllanishi.

### **Ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarish funksiyalari**

Ishlab chiqarish omillarining mahsulot hajmiga ta'siri. Izokvantalar. Qisqa davrdagi ishlab chiqarish. Uzoq davrdagi ishlab chiqarish.

### **Ishlab chiqarish omillari (resurslar) bozori**

Ishlab chiqarish omillari to'g'risida tushuncha. Ishlab chiqarishning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati. Ishlab chiqarish omillarining korxonalar (firma) faoliyati natijalariga ta'siri. Resurslar tanlovi va resurslar unumdorligi.

### **Kapital (investitsion resurslar) bozori**

Kapital va investitsion resurslar to'g'risida tushuncha. Kapitaldan daromad (%) nima Bo'lg'usi korxonani aniqlash. Investitsiya qiymatini hisoblash.

### **Harajatlarning va ularga bozorning ta'siri**

Harajatlarning to'g'risida tushuncha, ularning turlari. Harajatlarning va ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish va xarajatlarning o'zgarishi. Bozor davrining harajatlarga ta'siri.

### **Bozor hokimligi**

Bozor hokimligi xususiyatlari. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishi yo'llari, shart - sharoitlari, xususiyatlari. Yakka hokimlik va bozor talabi.

### **Monopol raqobat va oligopoliya**

Bozor tuzilishi va uning shakllari. Yakka hokimlik sharoitidagi raqobat va korxonalar foydasi. Oligopoliya sharoitida korxonalar. Monopol faoliyatini cheklash va raqobatni rivojlantirishga qaratilgan hukumat choralari.

### **Bozorlar bog'liqligi va ularning o'zaro ta'siri**

Soliq, baho va mahsulotni sotish hajmi o'rtasidagi bog'liqliklar tahlili. Foydani maksimallashtirish yo'llari.

## **4. TAVSIYA ETILGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOIYISH MATERIALLARI RO'YXATI**

- - Korxonalarining iqtisodiy mohiyati.

- - Talabning baho ta'sirida o'zgarishi va umumiy tushuncha.
- - Befarqlik egri chizig'i.
- - Byudjet egri chizig'i.
- - Tovarlar almashinuvi me'yorining grafikda ko'rinishi.
- - Tovar yoqtirishdagi individuval farqlarning chizmadagi ko'rinishi.
- - Resurslarning taqsimlanishi va ishlab chiqarish imkoniyatlari.
- - Xarajat turlari.
- - Firma resurslarining pirovard unumdorligi.
- - Resurslarni optimal ravishda ishlatish.
- - Ayirboshlashdagi samaradorlik.
- - Qisqa davrda foydani oshirish.

## **5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORAT TURLARI**

Seminar va amaliy darslardagi so'rov; oqzaki, yozma javoblarini reyting mezonlariga ko'ra baholash (ballarda).

Davomati va darsdagi faolligini baholash.

Faolliqi – bu adabiyotlarni topa bilishi, ulardan foydalanib borish, konspektlarni mavjudligi, amaliy topshiriqlarni (masalalarni, testlarni) ishlash, bilishga bo'lgan intilishi, internet tizimidagi axborotlardan foydalanish, statistik axborotlar to'plash va h.k. Qoldirilgan darslar bo'yicha qo'shimcha javob berish.

- Uy ishi, nazorat ishi bajarilishini, mustaqil ta'lim topshiriqlarini reyting mezonlari asosida baholash (yozma ravishda).

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish va ishlab chiqaruvchilar bilan savdo tashkilotlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi Qarori 13 noyabr 2002 yil //Xalq so'zi 14 noyabr 2002.
3. Er osti boyliklari to'g'risida (yangi taxriri) O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: 2002 13 dekabr//Xalq so'zi, 2002, 23 dekabr.

4. I.Karimov. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish bosh yo'limiz. - T.: O'zbekiston, 2002.
5. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida - T.: O'zbekiston, 1995.
7. Karimov I. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li - T.: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Asosiy maqsad – iqtisodiy yuksalishga erishishdir. - T.: O'zbekiston, 1998.
9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. - T.: Adolat, 1996. 2 - bo'lim. Mulk huquqi va boshqa adliyaviy huquqlar.
10. G'ulomov S.S., Alimov R.X., Xodiev B.Yu., Ishnazarov A.I. Mikroiqtisodiyot. - T.: Sharq, 2001.
11. Xamdamov K. Mikroiqtisodiyot. - T.: TDIU, 2002.
12. Egamberdiev E. Mikroiqtisodiyot asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995.
13. Egamberdiev E. Mikroiqtisodiyot (ma'ruza matnlari). – T.: TMI, 2001.
14. Uch. pos. Mikroekonomika. Pod. red. Bazilova, S. P. Burpo. - Minsk: BGEU, 2000.
15. Pindayk R., Rubinfeld D., Robert S., Daniel L. Mikroekonomika. – M.: Delo, 2001.
16. Taranuxa Yu.V. Mikroekonomika. Ucheb. MGU, - M.: 2002.
17. Murakaev L.S. Mikroekonomika. - M., 2000.
18. Galperin V.M. Mikroekonomika. - M., 1999.
19. Nureev R.M. Kurs mikroekonomiki. - M., 2000.
20. Ivashkovskiy S.N. Mikroekonomika - M.: Delo, 1998.
21. Emtsov R.G., Lukin M.Yu. Mikroekonomika. Uchebnik. - M.: Delo, 1999.
22. Sbornik zadach po mikroekonomike. K kursu mikroekonomiki R.M.Nureeva. – M.: NORMA, 2002.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi. Ekonomika - M.: Delo, 1997.
2. Kembell R. Makkonel., Stenli L. Bryu. Ekonomiks. - M.: Infra - M, 2003.

---

\*Mustaqil ta'lim topshiriqlari kursiv bilan ajratilgan